



## TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI” ROMANIDAGI DIALEKTAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

**Boybo‘lsinova Muyassar Shermuhammad qizi,**  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi  
[boybolsinovam@gmail.com](mailto:boybolsinovam@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18697665>

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot Tog‘ay Murodning Yulduzlar mangu yonadi asarida qo‘llangan dialektal birliklarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan. Asardagi dialektizmlar fonetik va leksik jihatdan o‘rganilib, ularning qahramonlar nutqini birlashtirish hamda hududiy muhitni yaratishdagi o‘rni yoritiladi. Dialektal birliklarning badiiy-estetik vazifasi va adabiy til bilan munosabati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlari:** Dialektologiya, sheva, dialekt, lahja, qarluq chigil uyg‘ur lahjasi, o‘g‘iz lahjasi, qipchoq lahjasi.

Til jamiyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tarixiy taraqqiyoti jarayonida turli hududiy va ijtimoiy shakllar orqali boyitilib borilgan. Ana shu hududiy nutq ko‘rinishlarini o‘rganish dialektologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir. Dialektologiya grekcha dialektos so‘zidan olingan bo‘lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o‘rgatadi. Dialekt - sheva, logos - ta’limot, ya’ni sheva haqida ta’limot demakdir.

Dealektologiya fanining obyektini mahalliy sheva va lahjalar bo‘lib, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va xususiyatlarini har tomonlama tasnif qilish;
2. Milliy tilning shakllanishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rnini va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;
3. Shevalarning o‘zaro munosabatini va ularning adabiy tilga bo‘lgan munosabatini belgilash;
4. O‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish xududlarini aniqlash;
5. Umumiy o‘xshash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida shevalarning xarita va atlasini tuzish;
6. Alohida guruhga kiruvchi shevalarning umumiy tomonlari va o‘xshashliklari bilan birga, o‘zaro farqlanuvchi tomonlari va buning sabablarini ochib berish;
7. O‘zbek tilining ko‘p shevali ekanligining tarixiy sabablarini aniqlash;
8. Maktab o‘quvchilari nutqida, turli yozma ishlarda uchraydigan mahalliy sheva xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda usullarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish.



«Sheva» atamasi forscha soʻz boʻlib, ovoz, til, soʻzlashish, odat, yoʻsin, ravish kabi maʼnolarni ifodalab, biror bir tilning oʻziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega boʻlgan eng kichik qismidir. Lahja (arabcha soʻz boʻlib, ifoda, soʻz, sheva, ovoz kabi maʼnolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni oʻzida birlashtiruvchi shevalar yigʻindisidir. Masalan, oʻgʻuz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama baʼzan tor maʼnoda, yaʼni sheva maʼnosida qoʻllanilishi ham uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha soʻz kabi. Dialekt shevaga nisbatan keng maʼnoda qoʻllaniladi. Adabiy tildan oʻzining baʼzi bir xususiyatlari (chunonchi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq boʻlagi dialekt deb yuritiladi. U tilning eng kichik boʻlagi sanalgan shevalarning bir qanchasini oʻz ichiga oladi, yaʼni u shevalar yigʻindisidan tashkil topadi. Masalan, qirq, saroy, joʻsh, nayman, qoʻnirot, qipchoq qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut kabi shevalar birlashib, oʻzbek tilining qipchoq dialektini tashkil qiladi. Lekin baʼzan dialekt atamasining tor maʼnoda, koʻpincha sheva maʼnosida qoʻllanilishi ham uchraydi: Buxoro dialekti kabi.

Oʻzbek tili lahjalari. Mutaxassislar (E. Polivanov) oʻzbek tilining rang-barang, shevalarini uch lahjaga birlashtirgan. Bular:

1. Qarluq-chigil-uygʻur lahjasi
2. Qipchoq lahjasi
3. Oʻguz lahjasi

Oʻzbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uygʻur lahjasi hozirgi oʻzbek milliy adabiy tilining meʼyorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat oʻzbek xalqining shakllanishida qarluq etnik tarkibi qoraxoniylar davridan boshlab alohida mavqega ega bolganligi bilan izohlanadi.

Qarluq-chigil-uygʻur lahjasi haqida oʻzbek tilining qarluq-chigil-uygʻur lahjasi tarkibidagi “uygʻur” soʻzining qadimgi uygʻurlarga hech qanday aloqasi yoʻq. Bu atama oʻzbek tili bilan birgalikda turkiy tillar gʻarbiy xun tarmogʻining qarluq guruhiga mansub boʻlgan hozirgi uygʻur tiliga ishora qiladi, xolos. Shuning uchun hozirgi oʻzbek milliy adabiy tili meʼyorlarining bu lahja xususiyatlariga yaqinligi bejiz emas.

Qipchoq va oʻgʻuz lahjalari taʼsiri. Qipchoq lahjasidan adabiy tilga kirgan soʻzlar: qirqim, oʻtov, toʻl, sarimoy, chakki, chalpak, uloq, sovliq, quyruq, bovor, patir, tovoq, kulchatoy, lochira kabi pazandachilik va chorvachilik atamaları. Adabiy tilning rivojlanishiga oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasi ham maʼlum darajada hissa qoʻshgan. Masalan: yoshulli, oʻgʻlon, buyon, qaydin, qaragoʻz kabi soʻzlar bunga misoldir.



Togʻay Murod ijodida nafaqat “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi, balki uning deyarli barcha asarlarida qishloq odamlari hayoti, ularning turmush tarzi va ruhiy olami milliy til vositasida yuksak mahorat bilan birga tasvirlangan. Yozuvchi dialektlar va iboralarni asarga singdirib, unga tabiiylik va hayotiylik baxsh etgan. Ayniqsa, qahramonlar nutqida uchraydigan shevaga xos birliklar orqali u qishloq muhitining milliy ruhini yorqin aks ettiradi. Bu holat asarlarning badiiy taʼsirchanligini oshirish bilan birga, oʻzbek adabiy tilining boyligini namoyon etadi. Xususan Togʻay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida dialektlardan maksimal darajada foydalangan.

**Poshikastalar** - ojiza, zaifa. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 21-betida. “- Ay, poshikastalar, devordan koʻp boʻylay berma polvonlarning xayolini boʻlasan! Bor, oʻsmangni qoʻy!”. Yozuvchi bu yerda ayollarni ojiza deb taʼriflashi bilan oʻzbek tilining boyligini eslatib oʻtgan.

**Uli** - oʻgʻil farzand. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 22-betida. “- Shu, Bakirboyning Samarqandda oʻqiyotgan Jonibek uli kelgan.” Tovush qisqarishidan paydo boʻlgan xalqona atamadir.

**Kadi** - qovoq (oshqovoq) poʻstlogʻidan tayyorlangan idish. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 25-betida. “Boʻrining onasi kadini chuqurchaga yaxshilab joylashtirib qoʻydi.” Bu uy-roʻzgʻor buyumi sifatida ishlatilgan boʻlib hozirda ayrim hududlardagina foydalanishadi.

**Mayak** - tuxum. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 27-betida. “Enam somonxonaga mayak yashirib qoʻyibdi. Bu jumla orqali qishloq hayotining tabiiy tasvirini yaratishga, qahramonlar nutqi orqali ularning ijtimoiy va turmush tarzini aks ettirishga intiladi.

**Changʻaroq** - eshik, deraza yoki tomdagi ochiq joyni yopib qoʻyiladigan parda, yopqich. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 28-betida. “-Boʻriqul, changʻaroqni yop-e, oftob tushib qoldi!” Togʻay Murod bu soʻzni qishloq muhitini jonli koʻrsatish uchun qoʻllagan.

**Chipta** - sholcha, mato, parda kabi osib qoʻyiladigan buyum. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 28-betida. “Nasim oʻtov chiptalarini yigʻib qoʻydi. Oʻtov tagʻin yorishdi.” Bu soʻz ham xalqona til hisoblanadi. Hangi - erkak eshak. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 30-betida. “Qirga oʻrlab borayotgan hangi charchadi. Quloqlari osti terladi”. Ushbu dialektizm asarda xalqona nutq va hududiy muhitni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Chigʻana** - arqon, bogʻich. “Yulduzlar mangu yonadi” asarini, 31-betida. “Ikkita hoʻkiz qoʻshigʻliq chigʻana bugʻdoy dastalari oralab yurdi.” Qishloq xoʻjaligiga oid, shevaga xos soʻz.



**Yag'ir** - yara, jarohat. "Yulduzlar mangu yonadi" asarini, 34-betida. "Bo'ri hangi yag'iridan ko'zini olmadi." Ko'proq xalq og'zaki nutqi va badiiy asarlarda uchraydi.

**Jelak** - yengsiz, yoqasiz ustki kiyim, odatda chopon yoki kamzulga o'xshash, lekin yengsiz bo'ladi. "Yulduzlar mangu yonadi" asarini, 61-betida. "Maksim polvon yengsiz, yoqasiz jelak kiyib chiqdi. Bo'ri polvon, bormoqlari uchi bilan jelagidan ushladi." Bu yerda jelak polvonning yelka va tanasini yopib turadigan, lekin qo'l harakatini cheklamaydigan kiyimi ekanini bildiradi.

**Satil** - chelak, paqir. "Yulduzlar mangu yonadi" asarini, 71-betida. "Bosh bakovul oldidagi satildan hovuchlab-hovuchlab suv oldi." Uy-ro'zg'or buyumlari orasida keng tarqalgan so'zdir.

**Elburut** - elburundan, erta. "Yulduzlar mangu yonadi" asarini, 76-betida. "Yana tag'in elburutdan bordi." Qishloq hayotiga xos atama.

**Alag'da** - bezovta, notinch, tashvishda. "Yulduzlar mangu yonadi" asarini, 131 betida. "Bo'ri polvon kapmiri alag'da bo'lishini o'ylab o'midan qo'zg'oldi." Ichki kechinmalarini ta'sirli bo'lishi uchun yordam bergan.

Mazkur ilmiy maqolada Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi dialektal leksik birliklar tahlil qilindi. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloqlardan birida tug'ilib ulg'aygan adibning ilk asari bo'lgan ushbu qissa Surxondaryo vohasining ko'hna qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda xalqona tilini betakror tarzda aks ettirishi bilan birga ajralib turadi. Asarda qo'llangan dialektizmlar qahramonlar nutqini tabiiylashtirib, o'sha davr, oddiy, sodda aholining turmushini yanada ta'sirli qilib berishga xizmat qilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. "Nurafshon-kitob-ta'minot" Toshkent 2022
2. Saidov Yoqub. "Durdona" nashriyoti. Buxoro 2021.
3. N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan maruzalar toplami. -Toshkent: Yosh kuch. 2023
4. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek tili. -Toshkent: Tafakkur avlodi. 2023
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: 2009